SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKLARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	970
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
Yuldashev Iskandar Abdurashidovich	
BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI	980
Rasulov Shuxrat G'ayratovich	
"YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT	984
Ibragimova Saodat Abdumom'inovna	



EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	990
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	
IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI	995
Davlatova Ozoda Olmos qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1001
Suyunova Dilfuza Dilmurod qizi	
BOZORNI SEGMENTATSIYALASHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI	1006
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilxomovna	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI	1010
Sharifboyev Bunyod Azamat o'g'li, Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna	
TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITALNING ROLI	1016
Mirzaraximova Nurhayot Baxrom qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ	1020
Ходжаева Наргизахон Анатолиевна	
FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT	1028
Aziza Ibroximova	
KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	1035
Boboraxmatova Shohsanam Ibodullo qizi	
MAHALLIY JUN TOLALARINING GEOMETRIK VA FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI NOTO'QIMA MATOLAR ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI NUQTAI NAZARIDAN TADQIQ ETISH	1039
Ermatov Shavkat Qulmatovich, Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING O'ZBEKISTONDAGI DINAMIKASI VA NATIJALARI (OLMALIQ KMK MISOLIDA)	1043
A.J.Tuychiyev, M.V Abdunabiyeva	
TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI QURISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VODIYSI (FARG'ONA VILOYATI VA QO'QON HUDUDI) MISOLIDA RAQAMLI LOYIHALASH, OPTIMALLASHTIRISH VA INTELLEKTUAL BOSHQARUV	1051
Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Zikrayev Akmaljon Alimovich	
O'ZBEKISTONDA KORPORATIV INNOVATSIYA TIZIMINI ISH SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI (KPI) AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQRISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1057
Rafikova Kamila Baxtiyorovna	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLIYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI	1063
Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li	
OILAVIY TADBIRKORLIKNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLİYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	1070
Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich	
AMORTIZATSIYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	1077
Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li	



AMORTIZATSIYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Xususan, amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'rtta guruhga ajratilgan holda tizimli tasniflanib tavsiflangan. Tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: amortizatsiya, amortizatsiya qilinadigan aktivlar, buxgalteriya hisobi, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari, hisob siyosati.

Abstract. This article examines the regulatory and legal framework for accounting for depreciable assets from a scientific perspective. In particular, regulatory and legal documents governing the accounting of depreciable assets are systematically classified into four groups. Based on the research findings, scientific conclusions and practical recommendations are formulated.

Key words: depreciation, depreciable assets, accounting, national accounting standards, international financial reporting standards, international accounting standards, accounting policy.

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения исследуется нормативно-правовая база учета амортизируемых активов. В частности, нормативно-правовые документы, регулирующие учет амортизируемых активов, систематизированы и классифицированы на четыре группы. По результатам исследования сформулированы научные выводы и практические рекомендации.

Ключевые слова: амортизация, амортизируемые активы, бухгалтерский учет, национальные стандарты бухгалтерского учета, международные стандарты финансовой отчетности, международные стандарты бухгалтерского учета, учетная политика.

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-404-son¹ Qonunida "aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, xazinalar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zararlar va ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari"² buxgalteriya hisobining obyektlari sifatida belgilangan bo'lib, buxgalteriya hisobini tashkil etish mas'uliyati buxgalteriya hisobi subyekti rahbari zimmasiga yuklatilgan. Bundan ko'rinadiki, buxgalteriya hisobi subyektlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlar ham buxgalteriya hisobining mustaqil obyektlari hisoblanadi va ular bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini tan olish, baholash, hisobga olish hamda moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi buxgalteriya hisobi subyekti rahbari tomonidan amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan minimal talablarga muvofiq tarzda belgilab qo'yilishi lozim.

Chunki milliy hisob tizimida buxgalteriya hisobi obyektlarini hisob va hisobotda aks ettirishga doir minimal talablar belgilangan bo'lib, buxgalteriya hisobi subyekti aynan ushbu talablar asosida amortizatsiya qilinadigan aktivlarni hisobga olish hamda ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini shakllantiradi. Shu bois, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan talablarni to'g'ri talqin qilgan holda qo'llash, amortizatsiya qilinadigan aktivlarni o'z vaqtida va to'g'ri hisobga olish hamda ularni moliyaviy hisobotda to'liq aks ettirish buxgalteriya axborotlarining ishonchliligi, shaffofligi va haqqoniyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-404-son Qonuni: <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>

² O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonuni. <https://lex.uz/acts/90762>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Albatta, amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini tashkil etish, yuritish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida xorijiy hamda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, T.M.Borlakova va L.K. Xybyrtovalar³ asosiy vositalar hisobiga oid me'yoriy-huquqiy tartibga solish tizimini to'rt darajali iyerarxik tizim sifatida tavsiflaydilar. Ularning yondashuviga ko'ra, birinchi darajani asosiy vositalarning mavjudligi va harakatini tartibga soluvchi qonunlar hamda hukumat qarorlari tashkil etadi. Ikkinchi darajada esa asosiy vositalarni e'tirof etish, baholash va hisobotda aks ettirishning umumiy qoidalarini belgilab beruvchi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot standartlari joylashadi. Uchinchi darajaga asosiy vositalar hisobini amaliy jihatdan tashkil etishni tartibga soluvchi nizomlar, metodik ko'rsatmalar va boshqa uslubiy yo'riqnomalar kiritilsa, to'rtinchi darajani korxonaning buxgalteriya hisobiga doir ichki me'yoriy hujjatlari, jumladan hisob siyosati, hujjatlar aylanishi grafigi, ishchi schyotlar rejasi va boshqa hujjatlar tashkil etadi. Shu bilan birga, mualliflar BHXS asosida asosiy vositalarni hisobga olish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi 1-son "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish", 16-son "Asosiy vositalar", 36-son "Aktivlarning qadrsizlanishi", 40-son "Investitsion mulk" hamda 41-son "Qishloq xo'jaligi" BHXS'lari bilan tartibga solinishini qayd etadilar.

G.M.Murzagalina⁴ asosiy vositalar obyektlarining buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni "qonunchilik", "me'yoriy", "uslubiy" va "tashkiliy" darajalarga ajratgan holda tavsiflaydi. Shuningdek, muallif moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tizimida asosiy vositalarga kiritilgan obyektlarni hisobga olish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish 16-son "Asosiy vositalar" BHXS bilan tartibga solinishini qayd etadi. Biroq u mazkur standartda belgilangan talablarni Rossiya buxgalteriya hisobi standartlarida nazarda tutilgan qoidalar bilan qiyoslash bilan cheklanib, amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobining xalqaro va milliy me'yoriy-huquqiy asoslarini yetarli darajada yoritib bermaydi.

A.S.Boltayev qishloq xo'jaligi faoliyatida foydalanilayotgan asosiy vositalar hisobini takomillashtirish bo'yicha olib borgan izlanishlarida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash tartibiga oid belgilangan qoidalarni qiyosiy tahlil qilgan holda ularning farqli jihatlarini ochib bergan. Bunda muallif faqat 5-son "Asosiy vositalar" BHMS hamda amaldagi Soliq kodeksida belgilangan qoidalarni qiyosiy tahlil qilish bilan chegaralanganligini kuzatish mumkin. Shuningdek, u "tadbirkorlik subyektida biologik aktivlar sotish, qishloq xo'jaligi hosiliga yoki qo'shimcha biologik aktivlarga aylantirish maqsadida foydalanilsagina ular 41-son BHXSning qo'llash doirasiga kiradi. Mazkur talablarga javob bermaydigan biologik aktivlar 16-son "Asosiy vositalar" nomli BHXS talablari asosida asosiy vositalar sifatida tan olinadi"⁵, deb ta'kidlab, asosiy vositalar sifatida tan olinadigan hamda amortizatsiya hisoblanadigan biologik aktivlarni tasniflaydi va tavsiflab beradi.

K.X.Xatamovning yozishicha, "Respublika iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jarayonida asosiy vositalar hisobi va auditini isloh qilish yurtimizdagi mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda xalqaro standartlar doirasida tashkil etish va yuritishni talab etadi. Bunda hisob siyosatida, xususan asosiy vositalar hisobini tashkil etish va yuritish siyosati 1-son "Hisob yuritish siyosati va moliyaviy hisobot" BHMSga muvofiq ishlab chiqilishi lozim⁶". Shuningdek, muallifning ta'kidlashicha, "xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga ko'ra asosiy vositalarni tan olish masalasi muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan MHXSning 16-son "Asosiy vositalar" standartiga muvofiq asosiy vositalar quyidagi hollarda tan olinadi: aktiv bilan bog'liq bo'lgan kelgusi iqtisodiy foyda korxona tomonidan olinishi ehtimoli yuqori darajada bo'lganda; korxona uchun aktivning tannarxi ishonchli baholanishi mumkin bo'lganda"⁷. Bunda muallif asosiy vositalar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari sifatida faqat 1-son BHMS va 16-son BHXSda belgilangan qoidalarni qayd etish bilan cheklanadi.

X.Sh.Arifxanovanning fikricha, "amaliyotda asosiy vositalarning soliq solish maqsadlarida hisobini yuritish hamda buxgalteriya hisobi standartlari asosida hisobini yuritishda tafovutlar mavjud. Bunday tafovutlar hisobda yagona axborot shakllanmasligiga, axborotdan foydalanuvchi manfaatdor tomonlar, jumladan investorlar va soliq organlari uchun qator muammo va qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Asosiy vositalar hisobini yuritishdagi asosiy tafovutlarni uch turga ajratish mumkin: asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini belgilashdagi; qayta

3 Borlakova T.M., Xybyrtova L.K. Normativno-pravovoe regulirovaniye ucheta osnovnykh sredstv v RSBU i MSFO. Elektronnyy nauchnyy zhurnal «Vektor ekonomiki», 2020, №11. www.vectoreconomy.ru

4 Murzagalina G.M. Normativno - pravovoe regulirovaniye ucheta osnovnykh sredstv. Forum molodykh uchenykh 5/2(21) 2018. 976-983 s.

5 Boltayev A.S. Qishloq xo'jaligi faoliyatida foydalanilayotgan asosiy vositalar hisobini takomillashtirish. "Soliq va hayot" elektron ilmiy-ommabop jurnali. II son, 2023. 58-69 betlar.

6 Xatamov K.X. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar hisobi va auditini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2019. – 13 b.

7 Xatamov K.X. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar hisobi va auditini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2019. – 14 b.



baholash qiymatini aniqlashdagi; amortizatsiya hisoblashdagi⁸. Mazkur tasniflash asosida muallif BHMS, MHXS va soliq qonunchiligiga muvofiq asosiy vositalar hisobining farqli jihatlarini qisqacha tavsiflash bilan cheklanadi. Fikrimizcha, bunday yondashuv asosiy vositalar hisobini yuritish bo'yicha axborotdan foydalanuvchilarni yetarli darajada ma'lumot bilan ta'minlash imkonini bermaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslarini tadqiq etishda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish jarayonida mantiqiy fikrlash, dalillarni to'plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo'yish kabi nazariy-tadqiqot metodlari, shuningdek ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish hamda davr oralig'ida tadqiq etish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning yondashuvlarini e'tirof etgan holda amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini yuritish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi belgilangan amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhiga to'xtaladigan bo'lsak, ularni quyidagicha tasniflash mumkin (1-jadval).

1-jadval. Amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari⁹


№	Me'yoriy-huquqiy hujjatlar		
	Guruh	Tasnifi	Tavsifi
1	O'zbekiston Respublikasi Qonunlari	"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun; Soliq kodeksi.	Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjat-lar amortizatsiya qilinadigan aktivlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish hamda ular bilan bog'liq soliq munosabatlarni tartibga soladi.
2	Buxgalteriya hisobi standartlari	Buxgalteriya hisobi-ning milliy standart-lari; Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari	Buxgalteriya hisobi standartlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlarni tan olish, baholash, ular bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish bo'yicha minimal talablarni belgilaydi.
3	Amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini yuritish va moliya-viy hisobotda aks ettirish tartibini belgilaydigan qonun osti hujjatlari	Amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini yuritish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini belgilaydigan nizomlar, yo'riqnoma-lar, uslubiy ko'rsatma-lar va boshqalar.	Ushbu qonun osti hujjatlari amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobining o'ziga xos jihatlarini hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirishning uslubiy asoslarini belgilaydi.
4	Amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini tashkil etish va yuritish tartibini belgilaydigan ichki me'yoriy hujjatlar	Buxgalteriya hisobi subyekting hisob siyosati	Buxgalteriya hisobi subyekting hisob siyosati ichki me'yoriy hujjat bo'lib, u amortizatsiya qilinadigan aktivlarni tan olish, baholash, buxgalteriya hisobi va hisobotda aks ettirish uchun foydalaniladi-gan maxsus prinsiplar, usullar, tartib va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar me'yoriy-huquqiy asoslarining birinchi guruhi — bu O'zbekiston Respublikasi qonunlari bo'lib, ular amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotda aks ettirish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi buxgalteriya hisobi standartlarining buxgalteriya hisobi subyektlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini yuritish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish jarayonida qo'llanilishi tashkiliy-huquqiy shakliga qarab quyidagicha tasniflanishi mumkin (1-rasm).

8 Arifxanova X.Sh. Soliq solish maqsadida hisob axborotidan foydalanishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2025. – 13 b.

9 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



1-rasm. Amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini me'yoriy tartibga solish elementi bo'lgan buxgalteriya hisobi standartlarining tasniflanishi¹⁰

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-404-son¹¹ Qonuniga muvofiq buxgalteriya hisobi subyektlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo'llash huquqiga ega. Ayni paytda amaldagi tartibga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari hamda yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab buxgalteriya hisobini MHXS asosida yuritishi va moliyaviy hisobotini ham ushbu standartlar asosida tayyorlashi shart etib belgilangan.

Ushbu talablarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 507-son¹² qarori tasdiqlandi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining tegishli buyrug'i¹³ asosida mamlakat hududida qo'llash uchun bir qator MHXS va ularga oid tushuntirishlar rasman tan olindi. Shu asosda O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llaniladigan buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari ikki asosiy guruhga — buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS, ya'ni IAS) va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS, ya'ni IFRS)ga ajratiladi.

BHXSlar 2005-yilga qadar qabul qilingan standartlar bo'lib, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarining asosiy maqsadi buxgalteriya hisobini yuritish qoidalarini tartibga solishdan iborat edi. Biroq xalqaro standartlarning konseptual asoslarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida hisobning mazmuni hisob yuritish jarayonidan moliyaviy hisobot orqali foydalanuvchilarga axborot taqdim etishga ko'chirildi. Natijada 2005-yildan keyin qabul qilingan standartlar "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" (MHXS) deb nomlana boshladi. Ushbu standartlar investorlar, kreditorlar va boshqa tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotning shaffofligi, taqqoslanuvchanligi va ishonchliligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularda aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad va xarajatlarni moliyaviy hisobotda aks ettirishning prinsiplari ustuvor hisoblanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi Nizom"¹⁴ga muvofiq moliyaviy hisobotni tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlarini ikki toifaga ajratish mumkin: birinchi toifa — BHMS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlari; ikkinchi toifa esa MHXS asosida moliyaviy hisobotni tayyorlaydigan buxgalteriya hisobi subyektlaridir.

¹⁰ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

¹¹ O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-404-son Qonuni: <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>

¹² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 507-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/4966554>

¹³ O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi 61-son buyrug'i. <https://lex.uz/docs/6312360>

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrda "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi Nizom"gi 181-son buyrug'i. <https://lex.uz/uz/docs/7194594?ONDATE=01.01.2025%2000>



Monografik tadqiqot obyekti sifatida o'rganilayotgan "Navoiyazot" va "Taxiatash donmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatlari MHXS asosida moliyaviy hisobotni tayyorlovchi buxgalteriya hisobi subyektlari bo'lganligi bois, ularda amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini yuritish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirishda quyidagi BHXS va MHXSlarda belgilangan minimal talablar qo'llaniladi:

- 8-son "Hisob siyosatlari, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar" BHXS;
- 12-son "Foyda soliqlari" BHXS;
- 16-son "Asosiy vositalar" BHXS;
- 36-son "Aktivlarning qadrsizlanishi" BHXS;
- 38-son "Nomoddiy aktivlar" BHXS;
- 40-son "Investitsiya ko'chmas mulki" BHXS;
- 41-son "Qishloq xo'jaligi" BHXS;
- 13-son "Haqqoniy qiymatni baholash" MHXS;
- 16-son "Ijara" MHXS.

BHMS asosida moliyaviy hisobotni tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlarida esa amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini yuritish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi quyidagi BHMSlarda belgilangan:

- 5-son "Asosiy vositalar" BHMS;
- 6-son "Ijara hisobi" BHMS;
- 7-son "Nomoddiy aktivlar" BHMS;
- 19-son "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish" BHMS;
- 21-son "Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" BHMS.

Uchinchi guruhga amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini yuritish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini belgilaydigan qonun osti hujjatlari kiradi. Ular tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom;
- "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risida"gi Nizom;
- "Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to'g'risida"gi Nizom;
- "Nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risida"gi Nizom va boshqa.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini tashkil etish va yuritish tartibini belgilaydigan ichki me'yoriy hujjat bu buxgalteriya hisobi subyekting hisob siyosati hisoblanadi. Unda buxgalteriya hisobi subyekting faoliyat xususiyatidan kelib chiqqan holda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartib-qoidalardan tanlab olingan amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini yuritish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish bo'yicha qo'llaniladigan prinsiplar, qoidalar, vositalar, usullar, amallar va shakllar tizimi belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, u buxgalteriya hisobi subyektlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bois, amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini hisob siyosatida aks ettirish masalasi tadqiq qilib o'rganildi va 1.3-paragrafda tadqiqot natijalari batafsil bayon qilindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslarini tadqiq qilib o'rganish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-404-son¹⁵ Qonuniga muvofiq amortizatsiya qilinadigan aktivlarni hisob tizimining markaziy elementi sifatida qarash zarurligi hamda ularni tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibining buxgalteriya hisobi subyekti rahbari tomonidan amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan minimal talablar asosida belgilab qo'yilishi buxgalteriya axborotining ishonchligi va shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berildi.

Ikkinchidan, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va iqtisodiy manbalarda keltirilgan yondashuvlar asosida amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari "O'zbekiston Respublikasi Qonunlari", "Buxgalteriya hisobi standartlari", "Amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini yuritish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini belgilaydigan qonun osti hujjatlari" hamda "Amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini tashkil etish va yuritish tartibini belgilaydigan ichki me'yoriy hujjatlar" guruhlariga ajratilgan holda tasniflandi va tavsiflab berildi.

Uchinchidan, amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini me'yoriy tartibga solishning muhim elementi sifatida buxgalteriya hisobi standartlari tizimli ravishda tasniflandi. Shuningdek, monografik tadqiqot obyektlarida

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-404-son Qonuni: <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>



amortizatsiya qilinadigan aktivlar hisobini yuritish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish jarayonida qo'llaniladigan buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) hamda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS) alohida ajratib ko'rsatildi. Ushbu standartlarda belgilangan minimal talablar asosida hisob yuritish zarurligi moliyaviy axborotning ishonchliligi, taqqoslanuvchanligi va shaffofligini ta'minlash nuqtayi nazaridan asoslab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-404-son Qonuni: <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 507-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/4966554>
3. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi 61-son buyrug'i. <https://lex.uz/docs/6312360>
4. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktabrdagi "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi Nizom"gi 181-son buyrug'i. <https://lex.uz/uz/docs/7194594?ONDATE=01.01.2025%2000>
5. Arifxanova X.Sh. Soliq solish maqsadida hisob axborotidan foydalanishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2025. – 13 b.
6. Borlakova T.M., Xybyrtova L.K. Normativno-pravovoye regulirovaniye uchyota osnovnyx sredstv v RSBU i MSFO. Elektron ilmiy jurnal "Vektor ekonomiki", 2020, №11. www.vectoreconomy.ru
7. Boltayev A.S. Qishloq xo'jaligi faoliyatida foydalanilayotgan asosiy vositalar hisobini takomillashtirish. "Soliq va hayot" elektron ilmiy-ommabop jurnali, II son, 2023. 58–69-betlar.
8. Murzagalina G.M. Normativno-pravovoye regulirovaniye uchyota osnovnyx sredstv. Forum molodyx uchyonyx, 5/2(21), 2018. 976–983-betlar.
9. Xatamov K.X. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar hisobi va auditini takomillashtirish. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2019. – 13 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>